

**ABDULHAMID CHO'LPONNING BADIY OBRAZ YARATISH  
MAHORATI**

*Temurov J.B.*

*FarDU o'qituvchisi*

*Annotatsiya:* Maqolada shoir ijodida jadidchilik g'oyalari, milliy ruhiyatni uyg'otish va mustamlakachilik siyosatiga tanqidiy munosabat asosiy mavzu sifatida ko'riladi. Lirik subyektning ijtimoiy-ma'naviy funksiyasi, xalq bilan identifikatsiyasi va umumlashgan obraz sifatida namoyon bo'lishi, shuningdek, badiiy matnda qarama-qarshi semantik konstruktsiyalar orqali Turkistonning ijtimoiy modelini shakllantirishi tahlil qilinadi. Maqola Cho'lpon ijodini nafaqat estetik, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega fenomen sifatida yoritadi.

*Kalit so'zlar:* lirik subyekt, milliy ong, ijtimoiy tanqid, mustamlakachilik siyosati, ijtimoiy-estetik konsepsiya, binar qarama-qarshiliklar

Abdulhamid Cho'lpon o'z ijodi va jamoatchilik faoliyatini xalq ongini uyg'otish, milliy va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ma'rifatparvarlik dasturi sifatida anglaydi. Bu jihatni A. Aymatov ham alohida ta'kidlab, "...Abdulhamid Cho'lpon estetikasining g'oyaviy asoslari xalqni ma'rifatli qilish, badiiy dunyoqarashini boyitishdir"<sup>1</sup> – deya qayd etadi.

1914-yil aprel oyidan chiqa boshlagan "Sadoyi Turkiston" gazetasining 18-apreldagi sonida Cho'lponning "Turkistonli qardoshlarimizga" nomli quyidagi she'ri chop etiladi:

Ilmu ma'rifat ham hunardin qoldi mahrum bizni xalq,  
Ma'rifatsizlik balosiga yo'liqqon bizni xalq.  
Bir kishi millatparast bo'lsa, deyurlar "dahriy" deb,  
Bir kishi millatni so'ksa, izzat aylur bizni xalq.

---

<sup>1</sup> Аймаатов А. Қ. Абдулхамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: 2011. — 135 б.

Maktab o‘rniga ochildi har mahallada mayxona,  
Nafrat etmak nari tursun, shodu xandon bizni xalq.  
Maktaba yo‘q bir tiyini, to‘yga ming so‘mlab berur,  
Chorasi mushkul kasalga muhtalodir bizni xalq.

“Yosh shoir qalbidagi tuganmas dard va hasrat bilan sug‘orilgan”<sup>2</sup> mazkur she‘r yaratilgan davrlarda Turkiston ayanchli va ziddiyatli holatda edi. Bir tomondan milliy uyg‘onish harakati, ya‘ni jadidchilik kengayib borayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan xalq ijtimoiy, ma‘naviy va ma‘rifiy inqirozga uchragan edi. Mustamlakachilik siyosati avjiga chiqqan, Rossiya imperiyaviy siyosatiga bo‘ysungan, Turkiston esa mahalliy xalqning siyosiy erki cheklangan, iqtisodiyoti esa Rossiyaga tobe holga keltirilgan edi. Shu tariqa, mustamlakachilik siyosati xalq manfaatlarini nazardan chetlab, uning iqtisodiy va ma‘naviy hayotiga tahdid solayotgan davrlar edi. Bunday sharoitda haqiqiy adabiyot va she‘riyat faqat shaxsiy ijodiy ifoda vositasi bo‘lib qolmay, balki millatning ma‘naviy barqarorligini saqlash, milliy ong va ruhni uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois Cho‘lpon kabi jadid shoirlar ijodi nafaqat estetik qiymatga ega bo‘lib, balki ijtimoiy, milliy va ma‘naviy vazifani bajarish mas‘uliyatini ham o‘z zimmasiga oladi. N. Karimov ta‘kidlaganidek, “...bunday satrlarni xalqning nodonligidan astoydil kuyingan kishigina yozishi mumkin”<sup>3</sup>.

XX asr boshlarida Abdurauf Fitrat va Cho‘lponlar tomonidan yaratilgan adabiyot an‘anaviy klassik she‘riyatdan keskin farq qiladi. Unda “...kommunikativ vosita sifatida ham badiiy adabiyot asrlar davomida yashab kelgan g‘oyalarni, umumestetik kanon sifatida shakllangan ko‘ngil kechinmalarini emas, balki mavjud ijtimoiy vaziyat haqidagi informatsiyani tashishga yo‘naltiriladi”<sup>4</sup>. N. Yo‘ldoshev ta‘kidlaganidek, “Cho‘lpon XX asr boshlarida milliy she‘riyatimiz tilini ancha soddalashtirib, xalq tiliga yaqinlashtirdi. Xalqona ruh bilan sug‘orilgan she‘rlar yaratdi”<sup>5</sup>. Mazkur poetik tendensiya shoirning ijodiy konsepsiyasida xalq ruhiyati,

---

<sup>2</sup> Каримов Н. Чўлпон. – Тошкент: Фан, 1991.

<sup>3</sup> Ўша манба 47-бет

<sup>4</sup> Куронов С. Д. Чўлпон шеърлятида бадий образнинг визуаллашуви. Илмий хабарнома, АДУ, №4 2015 йил. 84-86 б.

<sup>5</sup> Юлдашев Н.Т. Чўлпон шеърляти поэтикаси.

uning dardu orzularini bevosita ifoda etishga qaratilgan izlanishlar bilan uzviy bog‘lanadi. Shu tariqa, jadid shoirlar lirikasi shaxsiy his-tuyg‘ulardan chiqib, xalq ma’naviyati va milliy ongning ijtimoiy vositasiga aylanadi.

Cho‘lponning yuqoridagi “Turkistonli qardoshlarimizga” nomli she’ri ham aynan shu lirikaning yorqin namunasidir. She’rda lirik nutq ijtimoiy tanqid, ma’rifatparvarlik g‘oyasi va fojiviy hissiyotlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Shakli monologga o‘xshasa-da, ma’no-mohiyati dialogga juda yaqin. Chunki she’rda jamiyatdagi nuqsonlarning tanqid qilinishi va fosh etilishining o‘zi ham matnda jamiyat bilan zimdan muloqot ketayotganining dalilidir.

Rus adabiyotshunos olimi M. Baxtin badiiy asarni “o‘zida qadriyatlarni mujassamlashtiruvchi (ularga yo‘naltiruvchi) bir hodisa”<sup>6</sup> deya ta’riflaydi. Shuningdek, u muallif va qahramon “birlashmasligi va ayni paytda ajralmasligi”<sup>7</sup> haqida ham fikr yuritib, muallifni “yaratuvchi tabiat”<sup>8</sup>, qahramonni esa “yaratilgan tabiat”<sup>9</sup> sifatida talqin etadi. Olim lirik asarlar haqida fikr yuritar ekan, bunday asarlar tahlilida lirik qahramonni quyidagicha tasniflashni taklif etadi:

biografik muallif (empirik);

dunyoqarash va qadriyat tashuvchisi sifatidagi muallif;

matndagi ong tashuvchi – lirik subyekt.

Baxtinning yuqoridagi qarashlaridan kelib chiqsak, bu she’rda Cho‘lponning lirik ‘men’i ma’rifatparvarlik mafkurasi yuklangan nutqiy pozitsiya hisoblanadi. Nutq yo‘naltirilgan adresat esa “ma’rifatsizlik balosiga yo‘liqqon” xalq:

Orzu qilmas o‘glimi maktabda aylay tarbiya,

To‘y qilub, karnay cholurni orzu aylur bizni xalq.

Boshqa millatlar solurlar har mahalda madrasa,

Onlarning aksiga solg‘on choyxonalar bizni xalq.

---

<sup>6</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. С. 274. Ср.: Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М., 1975.

<sup>7</sup> Ўша манбаа

<sup>8</sup> Ўша манбаа

<sup>9</sup> Ўша манбаа

Shoir she'rdagi ma'no jihatidan zid bo'lgan so'zlardan maqsadli ravishda foydalanadi: ma'rifat – jaholat, maktab/madrasa – mayxona/choyxona, ittifoq – ixtilof, to'g'ri – egri kabi. Bu binar qarama-qarshiliklar yordamida u “ma'rifatsizlik balosiga duch kelgan” ijtimoiy muhit, ya'ni Turkiston modelini shakllantiradi. Y. Lotmanning ta'kidlaganidek, “adabiy matn real voqelikni to'g'ridan-to'g'ri tasvirlamay, semantik vositalar orqali yangi model yaratadi”<sup>10</sup>. Shu nuqtai nazardan, Cho'lponning she'riy makonidagi zid ma'noli so'zlar ham aynan shunday “modelllashtirish” vazifasini bajaradi.

Bu vaziyatda lirik subyekt Turkistonning ma'rifatsiz semantik makoniga qarshi qo'yilgan jadidchilik g'oyalarini ifoda etuvchi ong sifatida namoyon bo'ladi. A. Aymatov ta'biri bilan aytganda, “...millatparvar lirik qahramon siymosida namoyon bo'ladi”<sup>11</sup>. Uning she'riy nutqi faqat estetik ifoda emas, balki ijtimoiy va ma'naviy g'oyalarning translyatsiyasi vazifasini ham bajaradi, shu tariqa turkiy millatning ma'naviy va ma'rifatparvarlik ongiga xizmat qiladi.

Bir qarashda she'ridagi lirik subyekt shoirning shaxsiy ongiga yaqin bo'lib ko'rinsa-da, u biografik ongning to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilishi emas, balki badiiylashtirilgan va umumlashtirilgan ong subyektidir. L. Ginzburg lirik subyekt haqida fikr yuritarkan, “shoirning lirik “men”i faol ijtimoiylikda shaxsiy ichki kechinmalarni ifodalashdan chekinib, muallif tajribasining umum subyektiga aylanishi”<sup>12</sup>ni ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur badiiy matnda ham Cho'lponning lirik “men”i xalqning ma'rifatsizligiga qarshi kurashuvchi faol ijtimoiy ong sifatida namoyon bo'lmoqda.

Matnda qo'llanilgan “bizning xalq” shakli lirik subyektning pozitsion xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur she'rdagi lirik subyekt barqaror, bir nuqtali mavqeni emas, balki dinamik va ko'p qirrali pozitsiyani egallaydi: u bir vaqtning o'zida xalqning o'zini, uning bir vakili sifatidagi ongni hamda ayni paytda

---

<sup>10</sup> Lotman Ю. М. Структура художественного текста, М., 1970.

<sup>11</sup> Аймаев А. Қ. Абдулҳамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: 2011. — 135 б.

<sup>12</sup> Гинзбург Л. Я. О лирике. — Москва: Интрада, 1997. — 416 с. .

xalqqa qarshi qo‘yilgan tanqidiy ong egasini ifodalaydi. Bu holat jadid adabiyotiga xos bo‘lgan o‘ziga xos badiiy-ideologik uslubni namoyon etadi.

Jadid yozuvchilari, jumladan Cho‘lpon ham, bir tomondan millat, yurt va xalq taqdiri uchun chuqur ma’naviy mas’uliyatni his etgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan esa xalqning ma’rifatsizligidan qoniqmasdan, uni tanqidiy tahlil qilish zaruratini anglaganlar. Ana shu ichki ziddiyat lirik subyektini xalq bilan identifikatsiyalanish hamda unga nisbatan muqobil, islohotchi ongni ifoda etish kabi qarama-qarshi pozitsiyani egallashga majbur qiladi.

Ushbu she’rda namoyon bo‘layotgan lirik subyekt mustamlakachilik muhitining shakllanishini faqat tashqi siyosiy omil – Rossiya imperiyasi ta’siri bilan izohlab cheklanib qolmaydi. Aksincha, u mazkur jarayonda xalqning ichki holati, xususan, uning ma’rifatsizligi, ongiga singib ketgan qo‘rquv tuyg‘ulari hamda, eng achinarlisi, ijtimoiy befarqlikni hal qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatadi. Lirik subyekt xalqning ichki parokandaligi, “ixtilofdaligi” va “ittifoqlig”ini mustamlakachilikni chuqurlashtiruvchi omil sifatida qat’iy tanqid ostiga oladi. Shuningdek, xalqning go‘yo “so‘qir” holda o‘z yonida jadidlar tomonidan amalga oshirilayotgan ma’rifiy islohotlar va ularning da’vatlarini anglay olmayotgani ham lirik subyekt tomonidan keskin inkor etiladi:

Har shaharda ixtilofdin, “jiqqamush”din so‘z bo‘lur,

Ittifoqdin so‘z ochilsa, misli quyon bizni xalq.

Ko‘r-da farq aylayr to‘g‘ri ila noto‘g‘rini,

To‘g‘ri yo‘lga boshlsang-da, egri xohlar bizni xalq.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur she’rda Cho‘lponning lirik subyektini jadid ma’rifatparvarlariga xos ijtimoiy-ma’naviy pozitsiyani mujassam etgan umumlashgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Bu lirik qahramon orqali shoir o‘z asarlarida izchil ravishda ilgari surib keladigan asosiy ijtimoiy-estetik g‘oyalardan biri – mustamlakachilik siyosatiga tanqidiy munosabatni ifoda etadi. Xususan, A. Aymatov ta’biri bilan aytganda, Cho‘lpon ijodida “chorizmning mustamlakachilik siyosati xalqlar ozodligi, ayniqsa, Turkiston

xalqlari istiqboli yo‘liga tashlangan tuzoq<sup>13</sup> sifatida baholanadi; mazkur tuzoq xalq taraqqiyotiga jiddiy to‘siqlik qilib, o‘lka va millat taqdirini halokat yoqasiga olib kelgan ijtimoiy falokat sifatida talqin etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Aymatov A. Q. Abdulhamid Cho‘lpon estetikasining g‘oyaviy-badiiy asoslari: falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent: 2011. — 135 b.
2. Karimov N. Cho‘lpon. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Quronov S. D. Cho‘lpon she‘riyatida badiiy obrazning vizuallashtirilishi. Ilmiy xabarnoma, ADU, №4 2015 yil. 84–86 b.
4. Yuldashev N. T. Cho‘lpon she‘riyati poetikasi.
5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. С. 274. Ср.: Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М., 1975.
6. Лотман Ю. М. Структура художественного текста, М., 1970.

---

<sup>13</sup>12Гинзбург Л. Я. О лирике. — Москва: Интрада, 1997. — 416 с. .

<sup>13</sup>Айматов А. Қ. Абдулхамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари: фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: 2011. — 135 б.